



## **GAP QOLIPLARI VOQELANISHIDA LISONIY OMILLARNING USTUVORLASHUVI**

**Yuldosheva Nilufar Ergashevna,**  
*Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.d (DSc).*  
*E-mail: nilu.75@mail.ru*  
*tel.: +99891 638 75 23.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gap qoliplarinig nutqiy voqelanishida lisoniy omillarning ustuvorlashuvi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** gap, pragmatika, diskurs, lisoniy birlik, lisoniy omil, nolisoniy omil.

**Annotation:** This article examines the priority of linguistic factors in the speech implementation of sentence models.

**Key words:** sentence, pragmatics, discourse, linguistic unit, linguistic factor, non-linguistic factor.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается приоритетность лингвистических факторов в речевой реализации моделей предложений.

**Ключевые слова:** предложение, прагматика, дискурс, языковая единица, языковой фактор, нелингвистический фактор.

**Kirish.** Jahon tilshunosligida XX asrning bиринчи choragidan boshlab tilning immanent realligiga e’tibor qaratila boshlandi. F. de Sossyurning «Til substansiya (mohiyat) emas, balki, formadir»<sup>1</sup> degan qarashlari struktural g‘oyalarning rivojlanishida asosiy omil bo‘ldi. Natijada lingvistika formal, ixcham, sistematik fanga aylanishga intila boshladи<sup>2</sup> va struktur tilshunoslik yuzaga keldi. XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo‘lgani kabi lingvistika tarixida ham asosiy e’tiborning obyektga substansional nuqtai nazardan yondashuvdan struktur-funksional nuqtai nazardan yondashuvga o‘tishi bilan xarakterlanadi<sup>3</sup>. Natijada bu borada tilshunoslikda keng tadqiqotlar olib borila boshlandi. Fransuz tilshunosi E.Benvenistboshlagan g‘oyalarni A.Martine, M.Koen, O.Leshka, A.S.Barxudarov, R.A.Budagov, A.A. Shaxmatov, YE.I.Shutova, V.M.Solnsev<sup>4</sup> kabi olimlar o‘z izlanishlarida davom ettirdilar. Tilshunoslarlarning tadqiq obyektiga aylanib borayotgan lisoniy sintaktik qoliplar (LSQ)ning funksional-semantik jihatlari M.V.Vsevolodova, T.P.Lomtev, A.Kononov<sup>5</sup>, E.V.Paducheva<sup>6</sup>lar tomonidan

<sup>1</sup>Соссюр Ф. Курс общей лингвистики : Труды по языкознанию / Пер. с французского под ред. А.А.Холодовича. – М.: Прогресс, 1977. – 696 с.

<sup>2</sup> Бархударов А.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. –Проблемы порождающей грамматики. -М., 1976, с.5.

<sup>3</sup> Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языкаю КазГУ, 1989, с.17.

<sup>4</sup> Коэн М. Современная лингвистика и идеализм.-ВЯ. 1958. №. с.574; О.Лешка. К вопросу о структурализме.-ВЯ 1953; Бархударов А.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. –Проблемы порождающей грамматики. -М., 1976, с.5.; Будагов Р.А. Сходства и несходства между родственными языками. –М., 1985, с.7.; Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. - Ленинград. 1941. - 474 с., Шутова Е.И. Вопросы теории синтаксиса. -М., 1984. -С. 35.; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. –М., 1971, с.6-7. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. - Ленинград. 1941. - 474 с.

<sup>5</sup> Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. - М., 1960. -450 с.



o‘rganilgan bo‘lsa, til hodisalarini uning sohibi bilan birga o‘rganish masalasi E.Benvenist, G.A.Zolotova, Y.S.Stepanovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topdi. L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, P.O.Yakobson, I.I.Meshchaninov, A.M.Peshkovskiy, Sh.Balli kabi olimlarning ishlarida tilga kommunikativ jihatdan yondashilgan bo‘lsa, N.D.Arutyunova, Y.D.Apresyan, M.V.Nikitin tadqiqotlarida til birliklarining semantikasini o‘rganish, V.B.Kasevich, B.C.Xrakovskiy, L.Tenyer, P.Adamets, M.M.Pokrovskiy<sup>7</sup> ishlarida esa har xil turdagи predikatlar semantikasini o‘rganish dolzarblik kasb etdi.

Sintaksisning muayyan masalalari bo‘yicha sezilarli miqdordagi nazariy ishlarning mavjudligi gap qoliplarining nutqiy voqelanishiga ta’sir etuvchi omillarni ifodalash muammosini yanada chuqur o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Jahon tilshunosligida gap va uning xususiyatlari haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, V.G.Gak gapni til birligi sifatida, F. de Sossyur, A.I.Smirnitskiy, F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradovlar gapni nutq birligi sifatida e’tirof etdilar. Moskva formal tilshunoslik mактаби vakillari F.Fortunatov, A.Shaxmatov, A.Peshkovskiy, V.Vinogradovlarning izdoshlari bo‘lgan N.Dmitriev, N.Baskakov, YE.Polivanov, A.Borovkov, A.Kononovlar sintaktik birliklarni formal jihatdan o‘rganib, bu metodni o‘zbek tilshunosligiga olib kirdilar.

O‘zbek tilshunosligi sintaktik sohasida bu yo‘nalish A.G’ulomov, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova, M.Mirzaev, F.Abdullaev kabilar tomonidan shakllantirilgan. Ularning ishida sintaktik birlik, uning ifodalanish asosi, tuzilishi va shakllanishi, formal sintaktik munosabati tadqiq etildi<sup>8</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ham til, lison va nutqning izchil farqlanishi, lisonga semiotik, ya’ni shartli belgilar (ishoralar, ramzlar) sistemasi sifatida yondashilishi, asosiy diqqatni lisoniy birliklarning material-moddiy tomoniga emas, balki semantifunksional tomoniga qaratilishi natijasida struktur yo‘nalishga asos solindi. Bu yo‘nalishning asoschilari sifatida Sh.Rahmatullaev, I.Abdurahmonov, I.Qo‘chqortoev, R.Yunusov kabi tilshunoslarni ko‘rsatish mumkin. H. G‘. Ne’matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbanova,

<sup>6</sup>Падучева Е. В. О семантике синтаксиса. - М., 1974.

<sup>7</sup>Тенъер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988, 656 с. –с.19-29.

<sup>8</sup> Ўзбек тилшунослигига бу метод асосида фаолият кўрсатган тадқиқотчилар ишлари ҳакида батафсил маълумот олиш учун қаранг: Узоқов Ҳ. Ўзбек тилшунослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972; Шукров Ш., Бозорова Д. Узбекское советское языкознание. – Тошкент: Фан, 1984; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 231 б.; Ўринбоев Б., Турсунов У. Ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 174 б. [http://www.google.com.webhp?as\\_q=&hewww.bukshu.uzsci.net/ziyofi-lologiya/...](http://www.google.com.webhp?as_q=&hewww.bukshu.uzsci.net/ziyofi-lologiya/) Тилнинг белгилар системаси эканлиги. – Бухоро, 2009; [http://www.fdu.uz/fdutz/uzbek\\_tili/ed\\_uzb/2-mavzu.htm...](http://www.fdu.uz/fdutz/uzbek_tili/ed_uzb/2-mavzu.htm...) Системавий тадқиқотлар тарихи. – Фарғона ДУ, 2008.



M.Abuzaeva kabi tilshunos olimlar struktur sintaksis tahlil usullari asosida substansial sintaksisni shakllantirishga xizmat qildilar va *substansial sintaksisning jadal rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar*. Bu borada R.Sayfullayeva<sup>9</sup>, M.Qurbanova<sup>10</sup>, M.Abuzaeva<sup>11</sup>, SH.Akramov<sup>12</sup>, R.Bobokalonov<sup>13</sup>, G.Yaxshiboyev<sup>14</sup>, S.Muhammadjonova<sup>15</sup>, SH.Sharasulova<sup>16</sup>, R.Asadov<sup>17</sup>, M.Xujamkulova<sup>18</sup> kabilarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini ushbu yo‘nalishda yaratilgan muhim tadqiqotlar sifatida sanash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ma’lumki, gapning asosiy belgilaridan biri grammatik jihatdan shakllanganligidir. Anglashiladiki, gap grammatik shakllar asosida shakllanadi. “Grammatik shakl – leksemaning gap tarkibidagi, aniqrog‘i, gap talab qilgan grammatik shaklga kirgan holati. Leksemaning lisoniy shakli uning o‘zak va lisoniyashgan negiz shakli, grammatik shakli esa gapda hokim yoki tobe uzbeklikka xoslangan, ma’lum bir «grammatik libos» kiygan ko‘rinishi. Morfologik ko‘rsatkichlar, yordamchi so‘zlar yoki sintaktik mavqe leksemani grammatik jihatdan shakllantiruvchi vositalar bo‘lganligi uchun grammatik shakl atamasi metonimik asosda ushbu vositalarni ham atash uchun qo‘llanadi”<sup>19</sup>. O‘zbek tishunosligida sintaktik shakl atamasi ham mavjudki, u grammatik shakl atamasi bilan gipero-giponimik, ya’ni «jins-tur» munosabatidadir. Sintaktik shakl atamasi ma’nosи jihatidan torroq va aniqroq bo‘lganligi hamda lug‘aviy, lug‘aviy-sintaktik shakllar bilan birgalikda grammatik shakl atamasi tomonidan qamrab olinganligi uchun jins mavqeida bo‘lsa, grammatik shakl atamasi ma’no jihatidan kengroq va mavhumroq bo‘lganligi hamda lug‘aviy shakl, lug‘aviy-sintaktik shakllar bilan birga sintaktik shakllarni ham o‘z ichiga olganligi uchun tur maqomida.

<sup>9</sup> Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1993.

<sup>10</sup> Курбонова М. Ўзбек тилшунослигига формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2001.

<sup>11</sup> Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Бухоро, 1994. – 128 б.

<sup>12</sup> Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва хол. [WP<sub>m</sub>] валентлиги асосида: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1997.

<sup>13</sup> Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем-структур талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2003.

<sup>14</sup> Яхшибоев F.X. Ҳозирги ўзбек тилида содда гап синтактик деривацияси: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2004

<sup>15</sup> Муҳаммаджонова С. Ҳозирги ўзбек адабий тилида уюшган гаплар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1999.

<sup>16</sup> Шарасулова Ш. М. Содда гап таркибидаги сифатдошли қурилмаларнинг семантик-синтактик тадқики: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006.

<sup>17</sup> Асадов Р. Инглиз тили содда гап қурилмаларида монавалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси. Тошкент, 2018.

<sup>18</sup> Хужамкулова М. Содда гапда коммуникация ва прагматика муносабати: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси. – Тошкент, 2022.

<sup>19</sup> Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: фил. фан. докт. дисс. – тошкент, 2017. –6.58.



*Sintaktik shakl yasovchi* atamasi o‘zbek tilshunosligi faniga, aniqrog‘i, dastlab ona tili ta’limiga lug‘aviy shakl yasovchi atamasi bilan birga kirib keldi va an’anaviy shakl yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi terminlari o‘rnida (ammo ularning aynan muqobili sifatida emas) ommalashdi.<sup>20</sup>

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Maktab darsliklarida sintaktik shakl yasovchilar aloqa-munosabat shakllari ham deb yuritiladi. Munosabat shakllari – asoslarga qo‘silib, ularni boshqa so‘zlar bilan aloqa-munosabatga kiritish va gap bo‘laklarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan shakllar. Unga quyidagilar kiritiladi:

- 1) egalik shakllari;
- 2) kelishik shakllari;
- 3) kesimlik shakllari.<sup>21</sup>

Lisoniy hodisalarga darajalanish qonuniyati asosida munosabatda bo‘linsa, lug‘aviy va sintaktik shakllar oralig‘ida qaror topuvchi hodisalar ham borligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilida shunday shakllar borki, ular, bir tomondan, so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O‘zgalovchi kategoriya shakllari shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida *-ib* ravishdosh shakli shoshil so‘zining lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etgan, ya’ni unga ravishlik ma’nosiga yaqin ma’no bergen, shu bilan birga, bu so‘zni keyingi so‘zga bog‘lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o‘zgalovchi kategoriya shakllari lug‘aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi.<sup>22</sup> Demak, o‘zgalovchi kategoriya shakllari ham lug‘aviy ma’noni modifikatsiya qilishi bilan, ham fe’llarni boshqa turkum so‘zlariga bog‘lash vazifasini ham bajarib, o‘zining ikkiyoqlama – semantik-sintaktik tabiatini namoyon etadi.

Ona tili ta’lim mazmuni tizimiga o‘tgan asrning 90-yillarida kirib kelgan grammatik shakllarning yangi tasnifi umumiyligi o‘rta ta’lim darsligidan tortib oliy ta’lim dastur hamda qo‘llanmasigacha ommalashdi va bugungi kunda nosintaktik, leksik-morfologik yoxud so‘z turkumiga xoslangan sifatida biz yuqorida tahlil qilgan son, subyektiv baho, sifat darajasi, zamon, mayl kategoriysi tushunilsa, sintaktik (aloqa-munosabat shakli) kategoriya doirasida kelishik, egalik, nisbat, funksional (o‘zgalovchi), shaxs-son kategoriysi anglashiladi. Darhaqiqat, sintaktik kategoriya

<sup>20</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Курбонова М. ва бошк. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – Б.158.

<sup>21</sup> Она тили. Қомус / Тузувчилар Б.Менглиев, Ў.Холиёров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б.88.

<sup>22</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Курбонова М. ва бошк. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – Б.159.



so‘z birikmasi va gap qurilishiga aloqador kategoriya, so‘zni bog‘lash va gap bo‘lagini shakllantirishga xizmat qiladi<sup>23</sup>.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriylar orasida kesimlik alohida mavqega ega.

Turkiyshunoslikda kesimlik kategoriysi alohida va maxsus grammatik kategoriya sifatida dastlab tilshunos N.K.Dmitriev tomonidan ajratilganligi ma’lum. Olim «Kesimlik affikslari tarixiga» nomli tadqiqotida o‘z fikrlarini quyidagicha bayon etadi: «Qo‘sishimchadan iborat morfologik kategoriylar mavjud, ammo kesimlik kategoriysi to‘liq sintaktik vazifa bajaradi. Turkiy tilning o‘ziga xos xususiyati shunda». <sup>24</sup> *Kesimlik kategoriysi* atamasi maxsus sintaktik-morfologik kategoriya sifatida formal-funksional tezislari mualliflari qarashlarida uchraydi.<sup>25</sup> Kategoriyaning o‘zbek tili grammatik kategoriylari tarkibidagi o‘rnini masalasi tadqiqotchilar Sh.Shahobiddinova, L.Raupova, M.Ernazarova, N.Musulmanova tomonidan ham maxsus o‘rganildi<sup>26</sup> va B.Mengliyev, M.Qurbanova, M.Abuzalova, N.Yo‘ldosheva, B.Yorov ishlarida u haqda ma’lum bir fikrlar bildirildi. Barcha ishlarda kesimlik kategoriysi va uning ko‘rsatkichlari ma’nolarining murakkabligi e’tirof etiladi. Shaxs, son, zamon, mayl-modallik, tasdiq-inkor ma’nolari majmui kategoriya mohiyatining semantik tomonini; kesimni shakllantirish va uni ega bilan bog‘lash vazifasi sintaktik tomonni tashkil etishi, shu bilan birga, kesimlik predikativlikdan farqlanishi ta’kidlanadi.

Kesimlik kategoriyasining umumiyligi grammatik ma’nosini «kesimni shakllantirish hamda uning ega va holga munosabatini ifodalash» bo‘lib, bu umumiyligi ma’noni uni tashkil etuvchi ichki kategoriylar juz’iylashtiradi – xususiylashtiradi. «Kesimlik kategoriyasining zotiy ma’noviy mohiyati murakkab bo‘lib, undagi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma’nosini nisbiy alohidalikka ega. Shuningdek, bu kategoriyaning ichki shakli boshqa kategoriya ma’nosini asosida emas, balki o‘zi tegishli kategoriya ma’nosini xususiylashtiradi. Masalan, zamon kategoriysi shakli zamon ma’nosini xususiylashtiradi (o‘tgan, hozirgi, kelasi). Shaxs-son kategoriysi (birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik va ko‘plik) shakli shaxs-son ma’nosinigina xususiylashtiradi. Bunda «begona» kategoriya tajallisini kuzatmaymiz. Demak,

<sup>23</sup> Замонавий ўзбек тили. Морфология . – Тошкент. 2008.

<sup>24</sup> Дмитриев Н.К. К истории аффиксов сказуемости // Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. – М., 1956. – С.5 – 15.

<sup>25</sup> Нигматов Х.Г., Абдулаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухаммедова Д.А., Нурмонов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков (Тезисы формально-функционального исследования) // Сов.туркорология. 1984. №5. – С.3 – 10.

<sup>26</sup> Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жуз. – Андижон, 1994. – 34 б; Раупова Л. Ўзбек тилида номустақил кесим масаласи ва [WPm → WPm] курилиши гаплар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент, Фан, 2012.



kesimlik kategoriyasi – ichki kategorial sistemadan iborat yaxlitlik. Yaxlitlikning mohiyati shundaki, bu ichki kategorianing birortasi ikkinchisisiz yashay olmaydi».<sup>27</sup>

Aytilganidek, tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son (tuslash) shakllari kesimning, aslida gapning grammatic shakllanishini ta'minlaydigan kategoriyalardir. Mazkur grammatic shakllarning har biri o'zbek tilida o'z paradigmasiga ega bo'lib, so'z tarkibida shakllarining o'ziga xos joylashish tartibi va o'rni bor. Shuningdek, har bir grammatic shakl o'z mohiyatini, mustaqilligini saqlagan holda so'zga qo'shilib, birining ma'nosini boshqasi ifodalamaydi.

Bu grammatic kategoriyalardan birortasining qo'shimcha morfemasi qatnashmasa, uning ma'nosini boshqa morfema o'z ustiga oladi. Bu haqida Sh.Rahmatullayev shunday deydi:

«Avvalo, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi keng qamrovli bo'lib, fe'l leksemalarning tuslanishli shakliga ham, boshqa turkumlarga monand shakllariga ham mansub: O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar; ko'rib-ko'rmay; kirish-kirmasligini kabi. Ko'rinadiki, bo'lishli-bo'lishsizlikni kesimlik kategoriyasi deyish – tor; boshqa holatlar qatori kesimning shakllanishida ham qatnashadigan grammatic kategoriya deyish to'g'riroq.

Tasdiq-inkor ichki kategoriyasi kesimdan anglashilgan axborotning inkor yoki tasdig'ini ifodalaganligi uchun tasdiq yoki inkor mazmunidagi hollar ahamiyatli bo'ladi.

Shu bilan birga, grammatic ma'noning tarkibliligi, uning kategorial, yondosh va hamroh ma'nolardan iboratligi, bu tarkibiy qism shakllarining nutqiy voqelanishida hissasi turlicha ekanligi ularning ham tavsifini berishda umumlisoniy, qolaversa, borliq mavjudligining va tushuntirilishiga asos bo'lgan darajalanish qonuniyatiga tayanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Xuddi shuningdek, zamon kategoriyasini ham kesimlik bilan chegaralash mumkin emas; chunki zamon kategoriyasi fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllariga ham mansub: o'qigan – o'qiydigan – o'qiyotgan, o'qigach, o'qiguncha kabi. Demak, zamonni kesimlik kategoriyasi deyish – tor; boshqa holatlar qatori kesimning shakllanishida ham qatnashadigan kategoriya deyish to'g'riroq. Zamonni tuslanishli fe'l kesimlarning barchasiga xos deyish ham to'g'ri emas: buyruq maylidagi leksemashakl tarkibida zamon paradigmasining ko'rsatkichi qatnashmaydi, demak, grammatic zamon haqida gapirib bo'lmaydi.

Mayl-modallik kategoriyasi ma'noviy xususiyatlarining voqelanishida, boshqa ichki kategoriyalardan farqli o'laroq, shaxsiy, subyektiv omillarning mavqeい yuqori bo'lganligi sababli lisoniy omillarning belgilovchilik roli kuchsizroq bo'ladi.

<sup>27</sup> Замонавий ўзбек тили: Морфология / Масъул мухаррирлар X.Ф.Нематов, Р.Р.Сайфуллаева. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б.368.



Mayl kategoriyasi haqiqatda fe'lning tuslanishli leksemashakllariga xos, lekin barchasiga mansub emas: aniqlik mayli deb yuritiladigan fe'l leksemashakllarda mayl ma'nosi ifodalanmaydi. Demak, maylni kesimlik kategoriyasi deyish – keng; kesimning ayrim ifoda turlarida qatnashadigan grammatik kategoriya deyish to'g'riroq.

Ko'rindiki, yuqorida tilga olingan uch grammatik kategoriya gapshakl qolipida, kesim tarkibida turlicha qatnashadi, demak, universal (umumiyl) emas. Bu uch grammatik kategoriyaning ko'rsatkichi kesim tarkibiga obyektiv voqelikni aks ettirish talabi bilan qo'shiladi.

Bevosita gapshaklning o'zi tufayli qo'shiladigan ko'rsatkich – tuslovchi. Kesimlik kategoriyasi deb sanaladigan kategoriyalar orasida eng keng qamrovligi – tuslash kategoriyasi. Haqiqatda, tuslovchi qo'shilgan leksemashaklgina mustaqil kesim vazifasida keladi, bunday leksemashakl yolg'iz o'zi gapshakl (jumla) bo'lib kela oladi. Gapshaklning «ega X kesim» qolipida ham, boshqa qoliplarida ham tuslovchi qatnashadi»<sup>28</sup>.

Anglashiladiki, kesimlikning bu 4 ko'rsatkichi kesim uchun universal kategoriya bo'lsa-da, ular o'zbek tilida alohida-alohida ko'rsatkich bilan ifodalanishi ularning har birini ayrim-ayrim baholash imkonini beradi hamda ularning har bir leksemashakl tarkibida qatnashishi majburiy emasligini ko'rsatadi..

SH.Rahmatullayev qayd etganidek, tuslovchili leksemashaklning kesimga, gapshaklga aylanishida muhim omil – intonatsiya, aniqrog'i – gaplik ohangi. Masalan: *keldim*, *kelsam* kabilar – potensial kesim, potensial gapshakl xolos. Bunday leksemashakl gaplik ohangi bilan talaffuz qilinsagina gapshaklga aylanadi: Keldim. Kelsam. kabi.

Xullas, gapshakl (jumla) yuzaga kelishi uchun tuslovchili leksemashakl gaplik ohangi bilan talaffuz qilinishi lozim. Gapshakl yuzaga kelishida bu ikki universal hodisadan (tuslovchi va gaplik ohangidan) tashqari bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, mayl ko'rsatkichlari ham o'z o'rnida qatnashadi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, tuslash paradigmalari ko'rsatkichlarining qatnashuvi asosida bu umumiyl gapshakl qolipi bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) leksema + [S] + bosh K X leksema + B + M(Ts)

s i z +

kel + ma + ng

leksemashakl

leksemashakl

e g a

k e s i m

g a p l i k      o h a n g i

<sup>28</sup> Рахматуллаев Ш. Хозирги адабий ўзбек тили.



g a p sh a k l<sup>29</sup>

Quyida sintaktik shakl hosil qiluvchi vositalarning umumiy grammatik ma'nosiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillarning o'rni va rolini kesimlik kategoriyasi misolida ko'rib o'tamiz.

Lug'aviy shakl yasovchi vositalar o'zлari birikayotgan leksemalarning lug'aviy ma'nolarini modifikatsiya qilar, ya'ni nutqqa, gap tarkibiga kirish uchun moslashtirar ekan, ular ma'nolarining bifurkatsiyalanishida fluktuatorlik vazifasini ko'proq nolisoniy omillar bajaradi. Sintaktik shakl hosil qiluvchi vositalar lug'aviy ma'nodan ko'ra gap strukturasiga ko'proq daxldor bo'lganligi sababli ularning nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning hamkorligi o'ziga xos bo'lib, nolisoniy omillarning mavqeい ma'lum darajada susayadi. Ammo bu nolisoniy omillarning o'rni va roli butkul yo'qoladi hamda ahamiyatsiz bo'lib qoladi degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkabligi sababli har bir ichki kategoriyaga xos grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosini oraliq ko'rinishlarini farqlash va voqelantirishda lisoniy omillarning roli turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, shaxs-son ichki kategoriyasi kesimning ega bilan munosabatini muayyanlashtirar va ta'minlar ekan, uning muayyan ma'nolarini voqelantirishda gapning egasi ahamiyatlidir. Biroq zamon ichki kategoriyasi kesimdan anglashilgan axborotning paytini ifodalaganligi sababli uning ma'noviy xususiyatlarini muayyanlashtiruvchi sifatida hol vazifasida kelgan payt ma'noli so'zshakllar muhim rol o'yndaydi.

Ma'lumki, kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan shaxs-son ichki kategoriyasi harakatning har uchala shaxsdan biriga qarashliligini yoki bajaruvchi yoxud subyektning noma'lumligini ifodalab, kesimning ega bilan aloqasini ko'rsatadi.<sup>30</sup> Mavjud adabiyotlarda aytilganidek, ayrim gaplarda gap kesimida u birikuvchi so'zning o'timli-o'timsizligiga bog'liq ravishda, shuningdek, gapning struktur xususiyatidan kelib chiqqan holda shaxs-son ma'nosini butunlay so'nishi mumkin. Masalan, *Maktabga shu yo'ldan boriladi*, *Masalani shu usul bilan yechiladi* gaplarida buni ko'rishimiz mumkin. Gaplarda boshqa ichki kategoriyalar ma'nolarining yoki ma'nolaridan birining kuchayishi evaziga shaxs ma'nosini nol darajagacha susayadi. Buni ham, albatta, avvalo, subyektiv omillar, qolaversa, lisoniy omillardan qidirmoq kerak bo'ladi.

**Leksik omil.** Shaxs-son kategoriyasidagi «shaxs» tarkibiy qismining voqelanishida kesim vazifasida kelayotgan so'zning leksik xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, «buyruq» ma'nosini ifodalanishi uchun kesim vazifasidagi so'z «harakat» yoki «holat» ma'nolaridan birini anglatishi lozim. Bu esa

<sup>29</sup> Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.

<sup>30</sup> Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.130.



kesimning har doim fe'l bo'lib kelishini taqozo qiladi. Misollar: 1. *Qassob, ko'ngling bilan eshit – quloq aldaydi, aqling bilan ko'r – ko'z aldaydi.* (T.Murod) 2. *Yana bir kelinglar, maslahatlashib olaylik.* (T.Murod)

**Morfologik omil.** Kesimlik shakli «ta'kid» ma'nosini ifodalashi uchun [-ku] yuklamasining hamkorligiga ehtiyoj sezadi va bunda fonetik (aksentuativ) omil ham hamkorlik qiladi. Misol: 1. *Maktabning hojatxonasida chekishsa, muktab aybdor bo'lib qolmaydi-ku.* (T.Malik)

2. – *O'l-a, yuragimni yording-ku! – dedi.* (T.Murod)

Ta'kid kuchayganligi sababli urg'uning ham ahamiyati oshib, u o'z o'rnini o'zgartiradi va yuklamadan oldingi bo'g'inga ko'chadi. Berilgan misollardagi barcha shaxs-son shakllari «ta'kid» ma'nosini bilan birga «shaxs» va «son» ma'nosini ham kuchaytiradi, ish-harakatning bajaruvchisi soni e'tiborni tortarli darajada uqtiriladi.

Morfologik omil kesimlik ma'nolarining ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki «kesimlik kategoriyasi murakkab ekan, uning tarkibiy qismining yuzaga chiqishida uch holat farqlanadi:

- a) kesimlik ma'nosining yig'iq ifodalanishi: *Yoz. Boray. O'qigin. O'qituvchiman. Shifokorsiz;*
- b) kesimlik ma'nosining yoyiq ifodalanishi: *Yozmasaydingiz. O'qituvchidirman;*
- v) kesimlik ma'nosining tafsiliy ifodalanishi: *O'qisa bo'ladi. Ishchi edim. Yoz'sa kerak».<sup>31</sup>*

Kesimlik kategoriyasining umumiyligi grammatik ma'nosini har bir ichki kategoriyada modifikatsiyalarini, ichki va tashqi omillarga bog'liq ravishda ularning nisbati ham o'zgaradi.

Kategoriya ichki shakllaridan biri ma'nosining kuchayishi boshqalarining susayishiga olib kelishi kesimlik shakllari umumiyligi grammatik ma'nosini voqelanishida morfologik vositalarning o'rni qay darajadaligini ko'rsatadi.

Kesimlik shakllari umumiyligi grammatik ma'nosini voqelantirishda boshqa lisoniy omillarga nisbatan sintaktik omillarning o'rni va roli o'ta yuqori bo'ladi. Zero, kesimlik sintaktik kategoriya va gap strukturasi bilan nafaqat lug'aviy shakl yasovchi vositalar, balki boshqa sintaktik kategoriyalaridan ham yuqori turadi.

Shaxs-son ichki kategoriyasining o'z ma'nolarini voqelantirishda gap egasining roli o'ta yuqori. Chunki ega va kesimni muvofiqlashtirish shaxs-son kategoriyasining asosiy ma'nolaridan biridir. «Shaxs» ma'nosini ish-harakatning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bunda ikki holatni alohida ta'kidlash lozim:

- a) «shaxs» grammatik ma'nosining voqelanishida eganing obligatorligi;
- b) «shaxs» grammatik ma'nosining voqelanishida eganing fakultativligi<sup>32</sup>.

<sup>31</sup> Замонавий ўзбек тили: Морфология / Масъул мухаррирлар X.F.Нематов, Р.Р.Сайфуллаева. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б.368.



Bu egali gaplarning egasi ifodalangan va egasi ifodalanmagan turlarini farqlash bilan bog‘liq.

Ega va kesim W, Pm uzvlarining o‘ziga xos xususiyatlari va munosabati tufayli nutqda ega tushirib qoldirilmaydi, kesimlikdagi shaxsning muayyanligi ta’minlanadi. Bunda ega:

- a) kesimdagи W užvining talabi bilan shaxs-sonni muayyanlashtiradi;
- b) kesimdagи Pm talabi bilan shaxs-sonni muayyanlashtiradi.

Nutqda shaxs-son qo‘shimchalarining ko‘chma ma’no ifodalashi ham egani zarur qilib qo‘yadi. «Shaxs-son qo‘shimchasi ma’nodoshligi:

- 1) fe’lning II shaxs birlik qo‘shimchasi o‘rnida II shaxs ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llanadi: *Amaki, ertaga kelasizmi?*
- 2) fe’lning I shaxs birlik qo‘shimchasi o‘rnida II shaxs birlik qo‘shimchasi keladi: *Tabiatning ishlariga hayron qolasan, kishi;*
- 3) II shaxs ko‘plik o‘rnida I shaxs ko‘plik qo‘shimchasi qo‘yiladi: *Bolalar, bugun diktant yozamiz;*
- 4) II shaxs ko‘plik o‘rnida III shaxs birlik qo‘shimchasi: *U norozi ohangda dedi: – Shunaqa ish bilan hazillashib bo‘ladimi?»*

Zamon qo‘shimchalarining ham nutqda uslubiy o‘ziga xoslik uchun ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishida zamon ma’nosini ifodalovchi kengaytiruvchilarning bo‘lishi shart qilib qo‘yiladi. Zamon kengaytiruvchisi zamon kategoriyasi shaklining xususiy ma’nosini reallashtiradi.

«Zamon qo‘shimchasi ma’nodoshligi:

- 1) hozirgi zamon davom fe’li o‘rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo‘llanadi: *Butun qishloq ular haqida gaplashishadi (hozir); (gapisishadi – to‘g‘ri bo‘lar edi)*
- 2) kelasi zamon o‘rnida hozirgi zamon shakli keladi: *Ertaga terimga tushyapmiz;*
- 3) hozirgi zamon o‘rnida o‘tgan zamon shakli keladi: *Qarasam, yugurib kelayotibdi (o‘shanda)». <sup>33</sup>*

Gapdan payt hollari tushirib qoldirilsa, gapdan ko‘zlangan axborot mazmuni uqilmay qoladi. Payt hollari, ular bo‘lmanida matn omili tegishli grammatik shakllarning ma’nolarini reallashtirishda ishtirot etishi zarur bo‘lib qoladi.

Xabar maylidagi fe’lning buyruq (Qani, boshladik), shart (Boraman dedingmi, bor) maylidagi fe’llar o‘rnida kelishi ham ma’lum bir sintaktik, qolaversa, matniy omilning faollashishini talab qiladi.

<sup>33</sup> Менглиев Б., Холиёров Ў. Ўзбек тилидан универсал қўлланма. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.163.



**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Kesimlik kategoriyası tarkibiy qismi bo‘lgan zamon va modallik, tasdiq-inkor ichki kategoriyalari ma’nolarining nutqiy voqelanishida sintaktik omilning o‘ziga xos roli bor. Bunda mazkur kategoriyalarning ma’nolariga muvofiq hollar gapda ishtirok etmasa, kesimlik ma’nolari uqilmay qoladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики: Труды по языкоznанию / Пер. с французского под ред. А.А.Холодовича. – М.: Прогресс, 1977. – 696 с.
2. Бархударов А.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. –Проблемы порождающей грамматики. -М., 1976, с.5.
3. Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языкаю КазГУ, 1989, с.17.
4. Коэн М. Современная лингвистика и идеализм.-ВЯ. 1958. №. с.574;
5. О.Лешка. К вопросу о структурализме.-ВЯ 1953;
6. Бархударов А.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. –Проблемы порождающей грамматики. -М., 1976, с.5.;
7. Будагов Р.А. Сходства и несходства между родственными языками. –М., 1985, с.7.;
8. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. - Ленинград. 1941. - 474 с.,
9. Шутова Е.И. Вопросм теории синтаксиса. -М., 1984. -С. 35.;
10. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. –М., 1971, с.6-7.
11. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. - М., 1960. -450 с.
12. Падучева Е. В. О семантике синтаксиса. - М., 1974.
13. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988, 656 с. –с.19-29.
14. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1993.
15. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Қурбонова М. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – Б.158.
16. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2001.
17. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Бухоро, 1994. – 128 б.
18. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол. [WP<sub>m</sub>] валентлиги асосида: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1997.
19. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем-структур талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2003.
20. Яхшибоев F.X. Ҳозирги ўзбек тилида содда гап синтактик деривацияси: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2004
21. Муҳаммаджонова С. Ҳозирги ўзбек адабий тилида уюшган гаплар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1999.



22. Хужамкулова М. Содда гапда коммуникация ва прагматика муносабати: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси. – Тошкент, 2022.
23. Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигига: фил. фан. докт. дисс. –тошкент, 2017. –6.58.
24. [http://www.google.com.webhp?as\\_q=&hewww.bukshu.uzsci.net/ziyofi-lologiya/...](http://www.google.com.webhp?as_q=&hewww.bukshu.uzsci.net/ziyofi-lologiya/)  
Тилнинг белгилар системаси эканлиги. – Бухоро, 2009;  
[http://www.fdu.uz/fdutz/uzbek\\_tili/ed\\_uzb/2-mavzu.htm...](http://www.fdu.uz/fdutz/uzbek_tili/ed_uzb/2-mavzu.htm...) Системавий тадқиқотлар тарихи. – Фарғона ДУ, 2008

